



CHAENOMELES TURKUMI MANZARALI VAKILLARINING
QASHQADARYO VILOYATIGA INTRODUKSIYASI

Berdiev M., Ergasheva N.G.

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada *Chaenomeles* Lindl. turkumiga mansub ayrim tur va navlarining Qashqadaryo sharoitida biomorfologik xususiyatlarini o'rganishga doir dastlabki natijalar keltirilgan. O'rganilgan tur va navlar uchun Qashqadaryoning iqlim sharoiti qulay ekanligi, ularning ushbu sharoitda yaxshi o'sib rivojlanganligi va mo'l hosil bergenligi aniqlangan.

Аннотация: В статье представлены предварительные результаты изучения биоморфологических особенностей некоторых видов и сортов рода *Chaenomeles* Lindl. В условиях Кашкадарья. Установлено, что климатические условия Кашкадарья благоприятны для изучаемых видов и сортов, они хорошо растут и обильно плодоносят в этих условиях.

Abstract: The article presents preliminary results of studying the biomorphological characteristics of some species and varieties of the genus *Chaenomeles* Lindl. In the conditions of Kashkadarya. It has been established that the climatic conditions of Kashkadarya are favorable for the studied species and varieties; they grow well and bear fruit abundantly in these conditions.

Kalit so'zlar: biomorfologiya, gul, introduksiya, manzarali buta, meva, nav, tur, urug'

Ключевые слова: биоморфология, цветок, интродукция, декоративный кустарник, плод, сорт, вид, семя

Keywords: biomorphology, flower, introduction, ornamental shrub, fruit, variety, species, seed

So'ngi yillarda aholi yashaydigan joylarda, shaharlarda, hiyobon va bog'larda manzarali bog'dorchilikda qo'llaniladigan o'simliklar assortimentini yangi tur va navlar hisobidan boyitish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Rosaceae oilasiga mansub *Chaenomeles* Lindl. tukkumining ham mevali, ham manzarali tur va navlari ham o'zining madaniy arealini tobora kengaytirmoqda (1, 2, 3). Hozirgi kunda O'zbekistonda uning bir nechta tur va navlari introduksiya qilingan.

Turkum vakillarining aksariyati tabiiy holda Xitoy va Yaponiyada o'sadi. Barg to'kuvchi yoki chala doimiyashil buta bo'lib, 1-6 m gacha o'sadi. Barglari navbatma-navbat joylashgan, chetlari tishli. Gullari 3-4,5 sm, novdada yakka yoki 2-6 tadan joylashgan. Gullash ko'pincha barglar yozilishidan avval boshlanadi. Mevasi yirik, nok yoki olma shaklida, deyarli o'troq. Urug'lari endospermsiz, jigarrang. Sentabr-oktabr oylarida pishib yetiladi (4, 5).



Turkumning *Chaenomeles japonica*, *Ch. superba crimson and gold*, *Ch. superba nicoline*, *Ch. speciosa nivalis* kabi tur va navlari 2010-2016 y.y. oralig'ida Qashqadaryoning Shahrisabz shahriga introduksiya qilingan. Quyida ularning Shahrisabz sharoitida ayrim biomorfologik xususiyatlari keltiramiz.

Ch. japonica – bo'yli 1-1,2 m keladigan past bo'yli buta. Fevralning oxiridan aprelgacha gullaydi. Gullari 3-4 sm kattalikda, pushti yoki to'qsariq-qizil rangda. Changchilari 40-60 ta gacha. Gullarining umri 6 kun. Mevasining shakli tuxumsimon, yumaloq, rangi sariq bazan qizargan. Mevasining bo'yli 4-6 sm, eni 4 sm, og'irligi 30 g dan 90 g gacha. Mevasi sentabrda pishadi.

Ch. superba crimson and gold. Bu o'simlik duragay bo'lib *Ch. japonica* va *Ch. speciosa* larni chatishtirilish asosida yaratilgan. Bo'yli 1,2-1,5 m keladigan sershoxli buta. Yosh novdalari yashil, keyinchalik qo'ng'ir ranga kiradi. Shoxlarida mayda tikanlari bor. Mart oyida gullaydi. Gullarining diametri 3-5 sm, chashkasimon shaklda, rangi qizil, to'qqizil. Mevasi sentabrning oxiri - oktyabrning boshida pishadi. Mevasining rangi sariq. Mevasining bo'yli 5-6, eni 4-5 sm, og'irligi 40-70 g.

Ch. superba nicoline bo'yli 1,2 m ga yetadigan sershox qalin bargli buta. *Ch. superba crimson and gold* dan barglarining zichligi va gultojbarglari sonining kop'ligi bilan farq qiladi. Mevasining og'irligi 40-80 g, bo'yli va eni deyarli bir xil 5-6 sm. Mevasi sentabrning oxiri - oktabrning boshida pishib yetiladi.

Ch. speciosa nivalis bo'yli 1,5-2 m ga yetadigan, shoxlari zikh joylashgan buta. Ikki yillik shoxlari yalang'och, barglari tuxumsimon, cho'zilgan. Gullarining rangi oq, 3-4 sm kattalikda. Shahrisabz sharoitida fevral oyining oxiridan gullay boshlaydi. Mevasi qolgan turlarga nisabatan yirikroq, shakli tuxumsimon, uchki qismida bo'rtib chiqqan, rangi sariq. Mevasining uzunligi 7, eni 5,5 sm. Oktabr oyida pishadi.

Shahrisabz sharoitida *Chaenomeles* turkumi vakillari mevalarining ayrim morfobiologik xususiyatlari

Tur (nav) nomi	Mevalarning o'rtacha og'irligi, gramm	Mevalar o'Ichami		Mevanining shakli	Mevanining pishish vaqtி
		bo'yli, sm	eni, sm		
<i>Chaenomeles japonica</i>	71±6,2	5.7±0,8	4.3±0,6	Tuxumsimon	Sentyabr
<i>Ch. superba crimson and gold</i>	57±3,4	5.9±1,2	4.5±0,4	Yumaloq	Sentabr oktyabr
<i>Ch. superba nicoline</i>	69±5,8	5.8±0,9	5.2±1,02	Yumaloq	Sentabr oktyabr
<i>Ch. speciosa nivalis</i>	136±6,8	7±1,8	5.5±1,4	Tuxumsimon, uchi bo'rtib chiqqan	Oktyabr



Ayrim tadqiqotlarda O‘zbekistonning janubiy hududlarining issiq va quruq yosh sharoiti ko‘pchilik introdutsentlar uchun noqulay hisoblanishi, bu o‘sish va rivojlanishning to‘htashi, barglarning sarg‘ayib to‘kilishi kabi holatlar bilan namoyon bo‘lishi haqida ma’lumotlar keltirilgan (6, 7). Shahrisabz shahrining issiq va quruq yoz oylarida *Chaenomeles* turkumi vakillarining o‘sishdan to‘htaganligi kuzatildi. Ammo barglarning issiqliidan kuyib qolishi, gullarning to‘kilishi kabi holatlar kuzatilmadi.

Shunday qilib, *Chaenomeles* Lindl. turkumi manzarali vakillari uchun Qashqadaryo vohasining iqlim sharoiti qulay bo‘lib, o‘rganilgan tur va navlarning ushbu sharoitda yaxshi o‘sib rivojlanganligi va mo‘l hosil bergenligi kuzatildi. Ushbu tur va navlarni bioekologik xususiyatlarini o‘rganish asosida ularni ko‘paytirish va parvarishlashni ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish voha uchun istiqbolli bo‘lgan o‘simliklar assortimentini boyitish imkonini beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Комар-Тёмная Л.Д. Современные направления переработки плодов хеномелеса Сборник научных трудов ГНБС. – 2017. – Т. 144. – Ч. 2. – С. 125-131.
2. Кумпан В.Н., Сухоцкая С.Г. Хеномелес японский – новая культура в Западной Сибири. – Омск: ОмГАУ, 2010. – 120 с.
3. Меженский В.Н. Хеномелес. – М.: ООО «Издательство АСТ», 2004. – 62 с
4. Комар-Тёмная Л.Д. Критерии модели сорта и взаимосвязи хозяйственно ценных признаков хеномелеса в связи с селекцией // Труды по прикладной ботанике, генетике и селекции. – 2019. – Т. 180. – № 3 (2019). – С. 71-75.
5. Комар-Тёмная Л.Д. Характеристика признаковой коллекции хеномелеса (*Chaenomeles Lindl.*) // Бюллетень Ботанического сада-института ДВО РАН. 2018. – Т. 20. – С. 52-64. DOI: 10.17581/bbgi2005
6. Ёзиев Л. Х. Опыт интродукции древесных растений в Южный Узбекистан. – Ташкент: Фан, 2001. – 211 с.
7. Саматова Ш.А., Каттабоева Г.С. Инродукционная оценка цветочно-декоративных растений Карибской флористической области в условия Каршинского оазиса // Проблемы ботаники Южной Сибири и Монголии, 2023. - Т. 22, № 1. С. 321-325.